

## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagи xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2022- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 5 522,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 1 721,8 mlrd. so‘m yoki umumiyo ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 31,2 %ini tashkil qildi. 2021- yil yanvar-martga nisbatan o‘sish sur’ati 115,2 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari  
(2022- yil yanvar-mart oylarida)**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
<b>Jami xizmatlar:</b>	<b>5 522,2</b>	<b>115,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	181,9	123,1	3,3
Moliyaviy xizmatlar	788,0	134,9	14,3
Transport xizmatlari	1 176,2	107,6	21,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	219,6	107,9	4,0

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021-yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Savdo xizmatlari	1 826,9	113,6	33,1
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	194,0	117,1	3,5
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	136,3	107,2	2,5
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	117,0	110,6	2,1
Ijara xizmatlari	155,4	109,1	2,8
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	117,2	109,3	2,1
Shaxsiy xizmatlar	158,9	108,8	2,9
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	202,8	123,6	3,7
Boshqa xizmatlar	248,0	119,4	4,5

Yuqori o‘sish moliyaviy xizmatlatda (34,9 %), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (23,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (23,1 %), boshqa xizmatlarda (19,4 %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarda (17,1 %), savdo xizmatlarida (13,6 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (10,6 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar (9,3 %), ijara xizmatlarida (9,1 %), shaxsiy xizmatlarda (8,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (7,9 %), transport xizmatlarida (7,6 %) hamda ta’lim sohasidagi xizmatlarda (7,2 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’atlarining o‘sishi kuzatilmogda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan

#### bozor xizmatlarining tarkibi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 33,1 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (21,3 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (14,3 %) qayd etildi. Boshqa xizmatlarda uncha katta bo'lmagan o'sish kuzatilib ularning ulushi 4,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (4,0 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, %da**

(2022- yil yanvar-mart oylarida)




2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i 68,8 %ini tashkil etdi (2021- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 67,7 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,7 %ni tashkil etdi (2021- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 20,9 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiyl savdo xizmatlarining ulushi 11,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning mos davrida avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiyl savdo xizmatlarining ulushi 11,4 %ga to'g'ri kelgan).


**Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining  
o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, %da**  
(2022- yil yanvar-mart oylarida)



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari O‘rta Chirchiq (127,4), Ohangaron (127,0), Bo‘stonliq (127,0 %), Yuqori Chirchiq (126,8 %), Quyi Chirchiq (126,2 %) tumanlarida hamda Olmaliq (127,3 %), Bekobod (126,9 %) shaharlarida qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o‘sish sur’atlari Nurafshon shahrida (108,5 %) hamda Bo‘ka (109,8 %), Oqqo‘rg‘on (108,9 %), Piskent (108,5 %), Yangiyo‘l (107,9 %), Bekobod (106,8 %), Qibray (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da  
(2022- yil yanvar-mart oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (134,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (123,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,1 %) da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar yashash va ovqatlanish xizmatlari (107,9 %), transport xizmatlari (107,6 %) hamda ta'lif sohasidagi xizmatlar (107,2 %) da qayd etildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (153,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (132,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (126,3 %) da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Aksincha boshqa xizmatlar (97,6 %) va ta'lif sohasidagi xizmatlar (94,5 %) da keskin pasayish kuzatilgan.


**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan  
xizmatlar hajmi**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan %da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar- martga nisbatan %da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>5 522,2</b>	<b>115,2</b>	<b>100,0</b>	<b>1 873,8</b>	<b>116,5</b>
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	176,9	108,5	3,2	3 344,7	106,0
Olmaliq	427,9	127,3	7,7	3 155,3	125,4
Angren	343,3	113,2	6,2	1 963,0	124,1
Bekobod	287,6	126,9	5,2	2 870,0	122,9
Ohangaron	107,1	111,7	1,9	2 672,1	108,9
Chirchiq	443,7	110,0	8,0	2 684,0	108,5
Yangiyo‘l	237,1	110,4	4,3	2 960,4	85,5
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo‘rg‘on	136,7	108,9	2,5	1 260,3	106,9
Ohangaron	92,8	127,0	1,7	864,6	115,0
Bekobod	148,3	106,8	2,7	923,1	106,1
Bo‘stonliq	418,2	127,0	7,6	2 417,3	125,7
Bo‘ka	146,5	109,8	2,7	1 122,9	107,5
Quyi Chirchiq	115,6	126,2	2,1	1 030,1	124,1
Zangiota	511,8	113,4	9,3	3 048,3	131,7
Yuqori Chirchiq	229,8	126,8	4,2	1 703,8	131,2
Qibray	525,6	106,5	9,5	3 039,7	124,8
Parkent	203,4	112,3	3,7	1 178,2	102,6
Piskent	78,1	108,5	1,4	753,5	106,9
O‘rta Chirchiq	210,3	127,4	3,8	1 575,4	136,2
Chinoz	154,6	115,2	2,8	1 107,2	112,6
Yangiyo‘l	242,6	107,9	4,4	1 260,4	117,8
Toshkent	284,3	111,4	5,1	1 510,1	108,7

2022- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi – (9,5 %) (2021- yilning mos davrida – 10,3 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Piskent tumanida – 1,4 % (2021- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1 873,8 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,5 %ni tashkil etdi.


**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da**



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar O‘rta Chirchiq (136,2 %), Zangiota (131,7 %) va Yuqori Chirchiq (131,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Oqqo‘rg‘on tumanida (106,9 %) va Nurafshon (106,0 %), Yangiyo‘l (85,5 %) shaharlarida kuzatildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan  
xizmatlar hajmi, ming so‘m**




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 3 344,7 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,0 %), Olmaliq shahrida – 3 155,3 ming so‘mni (125,4 %) va Zangiota tumanida – 3 048,3 ming so‘mni (131,7 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng past xizmatlar ulushi Bekobod tumanida – 923,1 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 %), Ohangaron tumanida – 864,6 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 115,0 %) va Piskent tumanida – 753,5 ming so‘mni (106,9 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
faoliyatining ulushi, %da**

(2022- yil yanvar-mart oylarida)



2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 66,7 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Oqqo'rg'on (86,1 %), Toshkent (85,2 %), Bo'ka (84,1 %) tumanlari va Yangiyo'l shahriga (83,7 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Qibray tumanida (49,1 %), Bo'stonliq tumanida (47,6 %) va Nurafshon shahrida (38,3 %) kuzatildi.